


O'QITUVCHILARDA PEDAGOGIK MAHORAT КО'НИКМALARINI SHAKLLANTIRISH



B.X.Baydjanov

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

FarDU pedagogika va psixologiya fakulteti dekan

Maxmudova Maftunaxon Baxromjon qizi

Farg'ona davlat universiteti pedagogika
nazariyasi va tarixi (faoliyat turlari bo'yicha)
magistratura mutaxassisligi kafedrasi talabasi.

Maftuna.bahromovna.m@gmail.com

Annotatsiya. Hozirda pedagoglik faoliyatning alohida shakli sifatida o'z malakasini oshirib borishga ehtiyoj ham ortib boraveradi. Maqolada o'qituvchi pedagogik mahoratini oshirishning asosiy yo'nalishlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: pedagogika, pedagogik mahorat, o'qituvchi, axborot texnologiyalari, innovatsion g'oyalar, axborot, sog'lom raqobat.

Аннотация: В настоящее время возрастает потребность в повышении квалификации как особой форме педагогической деятельности. В статье говорится об основных направлениях совершенствования педагогического мастерства учителя.

Ключевые слова: педагогика, педагогическое мастерство, учитель, информационные технологии, инновационные идеи, информация, здоровая конкуренция.

Abstract: Currently, there is an increasing need for advanced training as a special form of teaching activity. The article talks about the main directions for improving the pedagogical skills of a teacher.

Key words: pedagogy, pedagogical skill, teacher, information technology, innovative ideas, information, healthy competition.

Haqiqiy professional doimo rivojlanishda bo'ladi va o'zining butun mehnat faoliyati davomida tadqiqotchi bo'lib hisoblanadi. Ayniqsa, pedagogda professionallikning shakllanishida mustaqil ta'lim va metodik faoliyat katta ta'sir ko'rsatadi. Pedagog professionalligining asosiy mezonlari ham hammaga ma'lum. Bular: metodikani yaxshi bilish va uni takomillashtirib borish; samarali o'zaro hamkorlikni tashkil etish uchun tarbiyalanuvchilarning psixologiyasini yaxshi bilish; o'zi o'qitadigan predmetni yaxshi bilish va ustida doimiy izlanish, o'z-o'zini takomillashtirib borish.

Jonajon O'zbekistonda uzlusiz ta'lif tizimiga o'tish munosabati bilan metodik ishlarning ustivor yo'nalishi ta'lif jarayoni sifat va samaradorligini oshirish uchun o'qituvchilarga yordam berish, pedagogning o'z malakasini oshirib borishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish bo'lib hisoblanadi.

Pedagogik mahorat o'qituvchilar va tarbiyachilarga pedagogik ijod-korlik, pedagogik texnika, ta'lif tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi, muloqot olib borish taktikasi, nutq madaniyati, tafakkuri, tarbiyachining ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarini tashkil etish va amalga oshirish, bu jarayonda xulq-atvorni va hissiyotni jilovlay olish xususiyatlarini o'rgatadi va o'z kasbini rivojlantirib boruvchi pedagogik faoliyatlar tizimi to'g'risida ma'lumotlar beradi.

Pedagogik mahorat - o'qituvchilarning shaxsiy (bolajonligi, xayri-xohligi, insonparvarligi, mehribonligi va hk.) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, qobiliyati va hokazo.) fazilatlarini belgilovchi xususiyat bo'lib, o'qituvchilarning ta'lif-tarbiyaviy faoliyati-da yuqori darajaga erishishini, kasbiy mahoratini doimiy takomillash-tirib borish imkoniyatini ta'minlovchi faoliyatdir. U o'z fanini mukammal bilgan, pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarlikka ega bo'lgan, o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo'lla-rini izlab topish uchun, amaliy faoliyat olib boradigan har bir o'qituv-chining kasbiy faoliyati da namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, pedagogik mahorat egasi bo'lismi uchun o'qituvchi o'z o'quv predmetini davr talablari asosida bilishi pedagogik va psixologik bilimlarga ega bo'lishi, hamda insoniylik, izlanuvchanlik va fidoyilikni o'zida tarkib toptirishi lozim. I.P. Rachenko pedagogik mahoratni pedagogik san'atning bir qismi sifatida ta'riflab, shunday yozadi: "pedagogik mahorat deganda o'qituvchining pedagogik-psixologik bilimlarni, kasbiy malaka va ko'nikmalarni mukammal egallashi, o'z kasbiga qiziqishi rivojlangan pedagogik fikrashi va intuitsiyaci, hayotga axloqiy-estetik munosabatda bo'lishi, o'z fikr-mulohazasiga ishonchi va qat'iy irodasi tushuniladi".

O'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish uchun ko'plab amaliyotlar, konferensiyalar, ilmiy anjumanlar vas hu kabi loyihamalar o'tkazilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o'qituvchi turli manbalarni qidirib, mustaqil ravishda o'z shaxsini va kasbiy faoliyatini oshirib borish uchun ulardan foydalanadi. Pedagogik mahoratini takomallashtirish uchun o'qituvchi jahon va milliy miqyosdagi zamonaviy o'qitish metodlari haqida xabardor bo'lishi hamda o'z ustida ishlashi darkor.

ADABIYOTLAR

1. Anton Makarenko. Pedagogik she'r. M.: Pedagogika, 1981 yil.
2. Brophy J., Yaxshi. T. O'qituvchining oquvchiga munosabati. M., 1974 yil.
3. Omonov N.T., Xo'jaev T.X. va boshq. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.-T.: Iqtisod-moliya. 2009.